



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

TA'LIM MAYDONI TENDENSIYALARI: KOMPETENSIYALAR, INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALAR

Norova Nafisa Farxodovna

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrası tatqiqotchisi

email: nafisaxonfarxodovna1@gmail.com

Annotatsiya:

Talabalarining amaliyot jarayonida, ularning kreativligi va kompetentsiyalarini rivojlantirish, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish hamda amaliyot jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalar o'rnini o'rganish.

Kalit so'zlar: Kreativ, innovatsiya, iqtidor, pedagog, texnologiya, ta'lim, tarbiya, pedagogika, talaba, amaliyot, kompetentsiya

Annotation:

The study of the role of innovative pedagogical technologies in the process of students' practice, the development of their creativity and competence, the use of innovative pedagogical technologies.

Keywords: Creative, innovation, talent, educator, technology, education, upbringing, pedagogy, student, practice, competence

Аннотация:

Изучение роли инновационных педагогических технологий в процессе практики студентов, развитие их креативности и компетентности, использование инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: Креатив, инновации, талант, педагог, технология, образование, воспитание, педагогика, студент, практика, компетенция



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

Kirish

Bizga ma'lumki talabalarning amaliyoti samaradorligini oshirish, davlat ta'lim standartlarining bajarilishini ta'minlash, ta'limning sifat ko'rsatkichini kafolatlashda zamonaviy pedagogik texnologiya hal qiluvchi omillardan bo'lib bormoqda. Pedagogik texnologiyani amaliyot jarayonida qo'llash hozirda jahon amaliyotida keng tarqalmoqda. Zero, amaliyot jarayonini demokratlashtirish, kelishuvchanlik asosida tashkil qilishda hamkorlik, hamijodkorlik rivoj topmoqda. Bular talabaning o'quv mehnatini amalga oshirishida harakatlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Talaba va o'qituvchini amaliyotda doimiy izlanishga, uzluksiz o'z ustida ishlashga undaydi. Bu, o'z navbatida, ta'limda samaradorlikni ta'minlaydi.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili oliy ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chiqiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan arajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi. Biroq, o'quv yilining oxirida kelib oliy ta'lim muassasalarida talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti.

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy kasbiy ta'lim mazmunini internatsionalizatsiyalash va modernizatsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyotga keng tatbiq etish asosida ta'lim oluvchilarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o'rin tutadi.

Muhokama va natijalar

Hozirgi kunda talabalarning amaliyot davrida kompetentli yondashuv keng tarqalgan. "Kompetensiya" markaziy tushuncha sifatida ta'lim tizimining barcha bilim va ko'nikmalarini o'zida birlashtiradi. "Kompetensiya" tushunchasida ta'lim mohiyati shakllanib, g'oyasi mujassamlashadi. Uning aniq natijalarini ko'zlagan



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

maqsadi -kompetensiyaning eng muhim qirralari, doimo rivojlanish tabiatiga ega bo'lgan, universal bilimlar asosida shakllangan mustaqil faoliyat tajribalaridan iborat, madaniyat va faoliyatning keng tarmoqlariga taalluqli unsurlarni o'z ichiga oladi.

Talabalarining amaliy kompetentligi doimo o'sib boruvchi dinamik hodisadir, malaka oshirish va o'z ustida ishlash jarayonining natijasi hisoblanadi. Bilim va mahorat, hatto ijobiy yo'nalish ham vaqt o'tishi bilan eskirib qoladi, jamiyatning zamonaviy talablariga, yangi texnologiyalarga mos kelmasligi mumkin. Jamiyat ham, odamlar, muammolar ham o'zgarib bormoqda. Demak, bu vazifalarni yechish uchun yondashuv va metodlarni ham o'zgartirish talab etiladi. Kompetensiya o'z bilimlarini tinmay boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, shu kun va davr talablarini his etishni, yangi bilimlarni izlab topish mahoratini, ularni qayta ishlashni hamda o'z amaliy faoliyatida qo'llashni talab qiladi. Kompetensiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va yo'llardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda innovatsion, akmeologik, aksiologik, kreativ, refleksiv, texnologik, kompetentli, psixologik, andragogik yondashuvlar.

Amaliyot davomida talabalarining shaxsiy rivojlanishi ularning mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik, munosabatlarining chuqurlashib hamda boyib borishi, xarakter hamda dunyoqarashlarining turg'unligi, o'z-o'zini nazorat qilish va tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojlarning shakllanishi kabi holatlar bilan tavsiflanadi. Bo'lajak kasb egalari uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish jarayoni – bu insonda mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda ahamiyatli sanalgan kasbiy bilim, sifat, kompetentlik va mezonlar asosida rivojlantirish hamda o'z-o'zini takomillashtirishning eng maqbul davridir. Ta'lim oluvchilar ushbu jarayonda bilimlarni jamlash, saqlash, uzatish, ularning mantiqiy tuzilmasini yaratish va istiqbolda kasbiy faoliyatini tashkil etishda ulardan samarali foydalanish kabi holatlarni o'zida mujassam ettiradi. Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yangicha yondashuvlar: Innovatsion yondashuv (pedagogik



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

innovatika, pedagogik innovatsiya) – Yaqin o‘tmishda “Innovatsion ta’lim”, “Innovatsion faoliyat” va “Innovatsion jarayonlar” terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta’lim so‘zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o‘zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi. Innovatsion ta’lim - ta’lim oluvchida yangi g‘oya, me‘yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me‘yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni yaratadigan ta’lim. Amaliyot davomida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir o‘qituvchi yuqori pedagogik mahorat va keng dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Shundagina o‘z mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik uning hamisha hamkori bo‘ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste’dodli kishidagina pedagogik mahorat egasi bo‘lishi mumkin. Pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo‘lishi, o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘otishi, o‘quvchilarning bilim, kamolot darajasi va ruhiyatini hisobga olishi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini tasavvur eta olishi lozim. Qobiliyatli, tajribali o‘qituvchi o‘zini o‘quvchining o‘rniga qo‘ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo‘lgan narsalarni o‘quvchilarga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo‘lishi ham mumkinligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakter va shaklini alohida o‘ylab chiqadi hamda rejalashtiradi. Bundan tashqari amaliyot davomida talabalarning faolligini oshirish maqsadida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish muhimdir. Pedagogik texnologiyalar amaliyot jarayonining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim maqsadlariga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Ular talabalarga kerakli natijaga erishishda yordam beradigan turli xil o‘qitish usullari, yondashuvlari va vositalarini ifodalaydi. Pedagogik texnologiyalarning samaradorligini baholash ularning samaradorligini va kelajakda ulardan foydalanishni aniqlashda katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar amaliyotga joriy etish mumkin bo‘lgan ma’lum pedagogik tizimning loyihasidir. Pedagogik tizim o‘zaro bog‘liq bo‘lgan vositalar, usullar va jarayonlar yig‘indisi bo‘lib, shaxsdagi muayyan sifatlarni shakllantirishga pedagogik ta’sir etishni maqsadga muvofiq



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

tarzda amalga oshiradi. Binobarin, har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak.

Hozirgi davr o'qituvchidan o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiya talablarini to'g'ri tushunish, tashabbuskorlik, o'z fani bo'yicha yangiliklardan xabardor bo'lishi va darslariga joriy eta olishni talab etadi. Talabalarning amaliyoti jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida hamkorlikni vujudga keltirish, do'stona muhitni yaratish muammosining muvaffaqiyatli hal etilishi, fan o'qituvchilari va maktab rahbariyatining egallagan bilim, ko'nikma malakalari va shaxsiy insoniy fazilatlarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. O'qituvchi avvalo:

-yumshoq ko'ngilli, ochiq chehrali, shirin so'zli, bolalarni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rishi;

- Mehr-muhabbat, qalb g'urini o'quvchilarga bab-baravar bo'lib berishi, sinfda do'stona muhitni yaratish va o'quvchilarning o'quv motivlarini rivojlantiruvchi kuch-rag'batlantirish metodlari ekanligini anglash;

- O'quvchilarning taqdiri, baxti va kelajagi uchun mas'ul ekanligini chuqur his etish, ularning nafsoniyati va qadr-qimmatini e'zozlash;

- Har qanday pedagogik vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik, haqorat qilish va baqirish, taqdid va qo'rqitishdan o'zini tiyishi zarur;

- O'quvchilarni tushuna olishi, ularning his-tuyg'ularini qadrlash, tashvishlari, iztiroblarini engishiga yordam berishi, yoshlik va psixologik rivojlanishda o'ziga xos xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlarini bilish. Mamlakatimizda olib borilayotgan ta'lim tizimining odil va demokratiyalashtirilishi o'quv jarayoniga o'zgacha talab va o'zgacha pedagogik munosabatlarni kashf etadi. Bu jarayon mazmun mohiyatdan avvalgidan tubdan farqlanadi.

Talabalarning amaliyot o'tash jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish orqali ijodkor, mustaqil fikr yurita oladigan ijtimoiy faol yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi yoshlarga zamon talablariga javob beruvchi bilimlarni berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak. Zero, tizimdagi yutuqlarning asosi maktablarda tashkil etiladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. O'quv



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

soatlarida o'quvchilarga yetarli bilim berish hayotiy ko'nikmalarini oshirish va malakalarini shakllantirish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq. O'quvchining mustaqil fikrini bayon etish, o'z yo'nalishini tanlashi va buning asosi bo'lgan qarashlarini isbotlashi, o'rni kelganda himoya qilishni o'rgatilsa, yoshlarni mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirib borishga erishishi orqali ta'lim mazmunining natijasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ta'limni isloh qilishda o'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar kundan-kunga oshib bormoqda. Pedagogika fani oldida turgan muammolarning biri ham, aynan, o'qituvchi va pedagog mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni bilimli va axloq-odobli qilib voyaga yetkazish vazifasi yotadi.

Shu munosabat bilan bugungi kunda o'qituvchi shaxsiga quyidagi talablar qo'yiladi:- o'z fanini chuqur bilishi va uning metodikasini yetarli darajada o'zlashtirish;- keng ilmiy dunyoqarashli va teran e'tiqod sohibi bo'lishi;- ijtimoiy ehtiyoj va axloqiy zaruriyatni chuqur tushunishi;- ijtimoiy va fuqarolik burchini chuqur anglashi;- ijtimoiy-siyosiy faol bo'lishi;- o'z kasbi va bolalarni sevrishi;- ruhiy pedagogik ziyrak bo'lishi va yangilikka intilishi;- o'z xalqi tarixi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini chuqur o'rganishi va ularni targ'ibot qilishi;- pedagogik kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, talabchanlik, qat'iylilik, vazminlik, haqqoniylik, o'zini tuta bilish kabi xislatlar sohibi bo'lishi;- o'z kasbiga to'la layoqatli va pedagogik takt (odob) egasi bo'lmog'i lozim. Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan har bir pedagog-o'qituvchi o'zining butun bilim va tajribasini ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga yo'naltirishi bugungi kunning muhim dolzarb masalasidir. So'nggi yillarda pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi tobora keng tarqalmoqda.

Xulosa

Texnologiyalar va rivojlanayotgan ta'lim paradigmalarining rivojlanishi bilan o'qituvchilar doimiy ravishda o'quv natijalari va faolligini oshirishning innovatsion usullarini izlaydilar. Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda pedagogik texnologiyalarning samaradorligini oshirish va baholashning ahamiyati, ularning o'qitish metodologiyalariga, talabalarning o'quv amaliyotlariga va umumiy ta'lim



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

natijalariga ta'sirini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Pedagogik texnologiyalarning vazifalari – amaliyotchi talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyatidan xabardor qilish hamda ularni maxsus fanlar asoslarini o'qitishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etishga, ta'lim jarayonini mukammal modul asosida loyihalashga erishish, ta'lim jarayonini loyihalash texnologiyasidan oqilona foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishga, ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi va ularda amaliy ko'nikma va malakalar hosil bo'lishining kafolati bo'la olishga o'rgatishdan iborat. Pedagogik texnologiya o'z mohiyatiga ko'ra subyektiv xususiyatiga ega, ya'ni, har bir pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini o'z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil etishi lozim. Qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etilishidan qat'iy nazar pedagogik texnologiyalar quyidagi natijalarga erishishi kerak:

- o'quv jarayonida pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishi;
- ta'lim jaroyinida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha puxta bilimlarning egallanishini ta'minlashi;
- o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishi;
- erkin va mustaqil fikrlovchi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ongli ravishda faol ishtirok etishga qodir yosh avlodni shakllantirishiga qaratilgan bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ziyomuhammadov B. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: «Turon -Iqbol». 2006.
2. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Usmonboyeva M., Inog'omova D. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob / Metodik qo'llanma. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2012.
3. Toxtaxodjayeva M.X. va boshqalar. Pedagogika nazariyasi. OTM uchun darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010.
4. Usmonboyeva M., To'rayev A. Kreativ pedagogika asoslari. o'quv –uslubiy majmua. - T.:TDPU 2016



Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11th May, 2025

5. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2009.
6. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jara'ida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi: amaliy va istiqbollar ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, - Toshkent: Universitet, 2018 yil 25 oktabr
7. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti, 2015. – 81-b
8. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – T.: Sharq, 2004
9. Inomova M. Oilada bolalarning – ma'naviy axloqiy tarbiyasi. –T .: 1999
10. Ibragimova G. (2015). Pedagogik innovatsiyalar yordamida talabalarning kreativ qobiliyatlarini shakllantirish. Zamonaviy ta'lim
11. Toshtemirova S.A. (2020). Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili. Maktab va hayot
12. Mardonov, S., Toshtemirova, S., Ahmadjonov, B., & Koshanova, N. (2020). Structure and Mechanisms of Action of the Educational Cluster. International Journal of Psychological Rehabilitation
13. Toshtemirova, S., Joldasov, I. (2019). Bilimdi adangershilikke baulu ideyasini qajettigi. “Actual problems of society, education, science and technology: status and prospects of development” collection of scientific papers of the ii international scientific-practical conference
14. Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion G'Oyalarning axamiyati. MuG'allim ham Yzliksiz bilimlendiriu
15. Mukhamedov G., Khodjamkulov U., Toshtemirova S. (2020). Innovative cluster of pedagogical education. Monograph, -T.: University
16. Toshtemirova, S. (2020). “Maktab-laboratoriya”lar mintaqaviy ta'lim sifatini oshirish modeli sifatida. Academic Research in Educational Sciences
17. Mardonov, S. K., & Toshtemirova, S. A. (2020). Classifying the educational system as an innovative approach. ISJ Theoretical & Applied Science
18. Toshtemirova C.A. (2020) "Maktab-laboratoriya" innovatsion tajriba-sinov maydonchalarida "iqtidor" loyihasini shakllashtirish mexanizmlari. Mug'allim ham yzliksiz bilimlendirio
19. Toshtemirova, S.A. (2020). Pedagogika sohasida klaster modeli asosida talabalarni kasbga yo'naltirish. Science and Education.